

SIFATNING MA'NO TURLARINI MATN ASOSIDA O'RGATISH

To'raxojayeva Adibaxon Xalilullayevna

Qo'qon davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti

Jalilova Sevinchbonu Abduvali qizi

Qo'qon davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya : Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumining ma'no turlarini o'rgatishda yangicha yondashuv — “kontekst asosida kashf etish” metodikasi yoritilgan. Tadqiqot natijalari kontekst asosidagi o'qitish o'quvchilarda sifatlarni chuqur anglash va ularni nutqda faol qo'llash ko'nikmasini rivojlantirishda samarali ekanini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: sifat, ma'no turlari, boshlang'ich ta'lim, metodika, kontekst, kashf etish, ijodiy fikrlash.

Аннотация : В данной статье рассматривается новый подход к обучению учащихся начальных классов видам прилагательных по значению — метод «открытия на основе контекста». Результаты исследования показывают, что обучение на основе контекста эффективно развивает у школьников способность глубже понимать прилагательные и активно использовать их в речи.

Ключевые слова: прилагательное, виды по значению, начальное образование, методика, контекст, открытие, творческое мышление.

Annotation: This article presents a new approach to teaching the types of adjectives by meaning in primary education — the “context-based discovery” method. The findings show that context-based learning effectively enhances students' understanding of adjectives and their active use in speech.

Keywords: adjective, types by meaning, primary education, methodology, context, discovery, creative thinking.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchining faqat bilim egallashi emas, balki mustaqil fikrlashi, tahlil qilish malakasiga ega bo'lishi va o'z fikrini erkin ifoda etishini ta'minlashga yo'naltirilgan.

An'anaviy ta'lim jarayonida sifatlarning ma'no turlari ko'pincha tayyor ta'rif va misollar asosida tushuntirilgan. Natijada o'quvchi sifatning mazmunini anglagan bo'lsa-da, uni amaliy nutqda to'g'ri qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Zamonaviy pedagogika esa bilimni tayyor shaklda emas, balki faol kashf etish jarayonida o'zlashtirishni talab etadi. Shuning uchun ham sifatlarning ma'no turlarini o'rgatishda interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish bugungi ta'lim jarayonida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Sifatlarning ma'no turlari — bu o'quvchilarning nutqiy muloqotda to'g'ri va aniq ifoda topishiga yordam beruvchi muhim leksik-grammatik birlikdir. 4-sinf ona tili darslarida bu mavzu o'quvchilarga rang, shakl, hajm, ta'm, hid, xarakter va holat bildiruvchi sifatlarni ajratish orqali o'rgatiladi. Biroq, agar bu tushunchalar faqat yodlash va takrorlash asosida berilsa, o'quvchilarda chuqur tushunish emas,

mexanik eslab qolish holati yuzaga keladi. Shu sababli o‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning kuzatish, taqqoslash va mustaqil xulosa chiqarish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi lozim.

3-sinf “Ona tili” darsligida bu mavzu 72–75-betlarda yoritilgan bo‘lib, unga 2 soatlik dars ajratilgan. Mazkur mavzu doirasida o‘quvchilarning sifat so‘z turkumiga oid bilimlarini mustahkamlash maqsadida 96–104-mashqlar berilgan. Ushbu mashqlar orqali o‘quvchilar sifatlarning haqiqiy va ko‘chma ma’noda qo‘llanishini farqlash, ularning matn kontekstidagi mazmuniy o‘zgarishini aniqlash ko‘nikmalarini egallaydilar.

4-sinf “Ona tili” darsligida esa sifatlarning ma’no turlarini o‘rgatish mavzusi yanada kengroq hajmda yoritilgan. Mavzu 24–38-betlar oralig‘ida joylashgan bo‘lib, unga 4 soat ajratilgan. Ushbu darslarda 32–52-mashqlar yordamida o‘quvchilarda so‘zning ko‘chma ma’nosini aniqlash, kontekstni tahlil qilish, so‘z birikmalarining obrazlilik darajasini baholash kabi tafakkur ko‘nikmalari shakllantiriladi.

“Ona tili” fanining 3-sinf darsligidagi 98-mashqda o‘quvchilarga quyidagi topshiriq beriladi:

Birikmalardagi sifatlarning ma’nosini taqqoslang va ko‘chiring:

Qalin kitob – qalin o‘rtoq, shirin qovun – shirin so‘z, uzun arqon – uzun hikoya, og‘ir tosh – og‘ir dard, o‘tkir pichoq – o‘tkir til.¹

Mazkur mashq sifatlarning ma’no turlarini kontekst asosida o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchi so‘zning ma’nosini alohida emas, balki u ishlatilgan vaziyat (kontekst) orqali anglaydi. “Qalin kitob” birikmasida “qalin” so‘zi predmetning hajmini bildirsa, “qalin o‘rtoq”da u “yaqin” ma’nosini beradi. Shu tarzda bola so‘zning ko‘p ma’noliligini o‘z kuzatuvi orqali anglaydi. Bu esa o‘quvchilarda semantik tafakkur, ya’ni so‘z ma’nosini vaziyatga qarab anglash qobiliyatini shakllantiradi.

4-sinf darsligida keltirilgan 34-mashqda quyidagi matnni ko‘rishimiz mumkin:

“Maktab – bu ulkan bilimlar olami. Birinchi sinfga kelgan bolaga mitti qo‘llari bilan har bir kichik harfni, har bir kichik raqamni chizish qanchalik qiyin bo‘lgan. Tengdoshlari bilan til topishish esa oson bo‘lgan. Maktab har bir o‘quvchi uchun katta oilalar. Har bir oilada bo‘lganidek, maktabda ham ota-ona-o‘quvchilar bor. Bolalar to‘g‘ri va chiroyli yozishni, ifodali o‘qishni hamda chuqur bilim egallashni o‘rganadi. Maktabda biz haqiqiy do‘stlar orttiramiz, bilimlarni ega bo‘lamiz va hayotni organamiz. Maktab inson hayotining eng ajoyib davrlaridan biridir.”²

O‘quvchilar matnda berilgan sifatlar va ularning ma’no turlarini mustaqil topadilar. Masalan: *ulkan* – xususiyat sifatleri, *mitti*– shakl-hajm sifatleri, *qiyin* – xususiyat sifatleri, *oson* – xususiyat sifatleri, *katta* – shakl-hajm sifatleri, *to‘g‘ri* – xususiyat sifatleri.

¹ Baynazarova D.D. Ona tili 3-sinf. III qism –Toshkent: Novda edutainment, 2023. –96 b.

² Baynazarova D.D. Ona tili. –Toshkent: Novda edutainment, 2023 91 b.

Sifatlar o'quvchilarga turli tushunchalar va malakalarni o'rgatishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan:

1. Shakl-hajm sifatleri (kichik, katta) o'quvchilarga o'lcham va miqdorni tushunishga yordam beradi. Bu sifatlar matematikaga asoslangan tushunchalarni o'rgatishda foydalidir.

2. Xususiyat sifatleri (qiyin, oson, to'g'ri, chiroyli, ifodali, chuqur, haqiqiy) o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi qiyinchiliklarini va yutuqlarini baholashda ishlatiladi. Bu sifatlar o'quvchilarga o'zlarining ishlash uslublarini aniqlashga yordam beradi.

Kontekst asosida o'qitishning eng muhim afzalliklaridan biri — o'quvchilarda til sezgirligini rivojlantirishdir. Har bir so'zning matndagi o'rni, ohangi, his-tuyg'u yuklamasi ularning fikrlash doirasini kengaytiradi.

Kontekst asosidagi mashqlar o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi:

1. so'zning haqiqiy va ko'chma ma'nosini farqlash;
2. so'z ma'nosini kontekstdan anglash;
3. o'xshash so'zlarning ma'no nozikliklarini taqqoslash;
4. matnning obrazlilik darajasini tahlil qilish;
5. nutqda so'zlarni maqsadga muvofiq tanlash.

Bunday yondashuv o'quvchining faqat grammatik bilimlarini emas, balki nutqiy madaniyatini ham shakllantiradi.³ So'zning kontekstual ma'nosini chuqur anglagan bola fikrini aniqlik, ta'sirchanlik va badiiylilik bilan ifoda eta oladi.

Xulosa qilib aytganda, kontekst asosida sifatlarning ma'no turlarini o'rgatish boshlang'ich ta'limda zamonaviy metodik yondashuvlardan biri sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Bu metod nafaqat o'quvchilarning ona tiliga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning fikrlash, tahlil qilish va badiiy idrok qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bois ushbu yondashuvni dars jarayonida keng qo'llash, uni o'qituvchilar tayyorlov tizimiga kiritish, amaliy mashg'ulotlarda tatbiq etish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova U. O'yin vositasida o'quvchilar bilimini mustahkamlash.-T.:1995. – 166 b.
2. Matchonov S. va boshqalar. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etish. –T.: 2008. –86 b.
3. Alovutdinova N.G., Bobomurodova A.Ya. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 360 b.
1. Ziyadova T.U. Boshlang'ich sinflarda til o'qitish asoslari. – Samarqand, 2019. – 275 b.
2. Baynazarova D.D. Ona tili 3-sinf. III qism –Toshkent: Novda edutainment, 2023. –96 b.
3. Baynazarova D.D. Ona tili 4-sinf. III qism –Toshkent: Novda edutainment, 2023. –95 b.
4. www.ziynet.uz – O'zbekiston ta'lim portali.

³ www.ziynet.uz – O'zbekiston ta'lim portali.